

Farg'ona viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-iyun dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDOAYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1- iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 7 582 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 151 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 7 431 tani tashkil qildi.


2026- yilning yanvar-iyun oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 20 175,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 111,5 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 3 003,6 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 133,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 15 278,9 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 126,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 893,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 126,3 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 668 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 33 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 635 tani tashkil qildi. Viloyat bo'yicha 2026- yilning yanvar-iyun oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 22 952,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 16,6 % ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 21 584,6 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,8 % ga to'g'ri keldi va viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 94,0 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi(mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Dang'ara (802,9 m.) va O'zbekiston (45,2 m.) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari(foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1-iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 123 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 8 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 115 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 12 778,9 mlrd so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 110,6 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 89,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovara ylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiyhujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: Tel: +998732419768	Ijrochi: Tel: +998732419768	Manzil: Farg'ona sh., Oq yo'l ko'chasi, 104-a
---	--	---------------------------------------	---